

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI	10-16
<i>Atamuratova Dilafroz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	32-35
<i>Matyakubov G'ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)	40-45
<i>G'aniyev Mirjalol</i> QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT	46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH AHAMIYATI	88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Saidov Hakim G'afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCHAMLARI	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI	140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА"	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI	166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'liq qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI	249-256
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI	286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 05 May 2025**Accepted:** 15 May 2025**Published:** 30 May 2025*Article / Original Paper***CREATION OF THE LEGAL FRAMEWORK OF MEDIA IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN****Mirsaid Abdurakhmonov**

Navoi State University of Mining and Technology

Abstract. This article provides a legal and scholarly analysis of the formation process of the legal framework governing mass media activities in the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is established, and the main legislative documents, along with the stages of their adoption, are outlined. Additionally, the current legislation that regulates mass media activities in Uzbekistan is compared with international standards, highlighting existing problems and shortcomings. Based on the research findings, specific recommendations are offered for improving the legislation in this area and enhancing the legal protection of mass media.

Keywords: mass media, legal framework, legislation, printed publications, freedom of the press, freedom of information, international standards.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI**Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasida assistenti,

E-mail: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanish jarayoni ilmiy-huquqiy tahlil qilindi. Mavzuning dolzarbligi, asosiy qonuniy hujjatlar va ularning qabul qilinish bosqichlari bayon etildi. Shuningdek, O'zbekistonda OAV faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik xalqaro standartlar bilan solishtirilib, mavjud muammo va kamchiliklar aniqlandi. Tadqiqot natijalariga asosanib, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish va ommaviy axborot vositalarining huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, huquqiy asoslar, qonunchilik, bosma nashrlar, OAV erkinligi, axborot olish erkinligi, xalqaro standartlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N01>

Kirish. Globallashuv jarayonining tezlashishi va raqamli texnologiyalarning yanada keng joriy etilishi zamonamizda axborot oqimining yuqori tezkorligi va ta'sirchanligini oshirdi. Shu bois, demokratik jamiyatlarda ommaviy axborot vositalari (OAV) nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki ijtimoiy boshqaruv, jamoatchilik nazorati va siyosiy hisobdorlikni ta'minlovchi institut sifatida tez-tez e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, so'z erkinligini huquqiy asoslar bilan kafolatlash va OAV faoliyatini qonunchilik doirasida tartibga solish barcha huquqiy demokratik davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonini tahlil qilish, mavjud qonunchilikni o‘rganish hamda rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi eng muhim normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;
- 2) Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanishining tarixiy bosqichlarini tahlil qilish;
- 3) Milliy va xalqaro qonunchilikni taqqoslash orqali mavjud muammolarni aniqlash;
- 4) Ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada erkin va shaffof yuritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari va ularning huquqiy asoslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar belgilandi. Tadqiqot predmeti esa – ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy tartibga solish jarayoni, amaldagi qonunchilik va ularning ijrosi masalalari hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining me‘yoriy-huquqiy asoslari izchil o‘rganildi. Milliy qonunchilik va xalqaro standartlar taqqoslandi va tahlil qilindi, mavjud muammolar muhokama qilinib, ularga yechim topish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Adabiyotlar va metodlar tahlili. Ushbu maqolani yozish jarayonida O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, xalqaro huquqiy normalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik qo‘lga kiritilgach, milliy axborot bazasini yaratish va ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratik talablar asosida tartibga solishga doir bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqa boshladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1], “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (1991) [2], “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2002) [3], “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2003) [4], “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (2007) [5] kabi ko‘plab qonunlar qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari, so‘z erkinligining huquqiy asoslari yaratilishida muhim qadam hisoblanadi. Oxirgi yillarda, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) [6] doirasida OAV erkinligini ta‘minlash, jurnalistlar huquqini himoya qilish, ochiqlik siyosatini yanada jadallashtirish va xalqaro axborot standartlariga mos qonunchilik bazasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Qonunchilik hujjatlarini yaratish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi hukumati xalqaro tan olingan inson huquqlarini kafolatlovchi qonunlarni teran o‘rganib qonunchilik asoslarimizni yaratish jarayonida ular e‘tirof etildi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi [7] va Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlarni [8] keltirishimiz mumkin.

Dunyo davlatlarining uzoq yillik boy tajribasidan ma‘lum bo‘lmoqdaki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, jurnalistlarga yaratilgan keng imkoniyatlar va muhim huquqiy asoslar yaratilganligi mamlakatda inson huquqlari va davlatning xalq oldidagi hisobdorligini ta‘minlashda hal qiluvchi omillardan ekanligi xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Jumladan, Farrell va Jeyms 2024-yilda nashr qilingan tadqiqotida “OAV demokratik

jamiyatlarda fikr almashinuvi, jamoatchilik ishtiroki va siyosiy jarayonlar ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi"[9] deya ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, AQSHning Oregon shtatidan bo'lgan Soken-Huberty esa, "Erkin matbuot hokimiyat faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarning haqiqatga asoslangan axborot olish huquqini kafolatlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi" [10] degan fikrni bildiradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari shakllanish va yaratilishi jarayoni, uning asosiy bosqichlari, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlili hamda zamonaviy tamoyillar asosida rivojlanib borayotgan qonunchilik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu maqolani yozishda bir qator metodlar qo'llanildi:

- 1) Huquqiy tahlil metodi – mavjud qonun hujjatlari va normativ-huquqiy asoslar tahlili;
- 2) Tarixiy-taqqoslash metodi – O'zbekiston va xorij tajribasi asosida tarixiy davrlar qiyosiy o'rganildi;
- 3) Solishtirish metodi – milliy va xalqaro me'yorlar o'rtasidagi farq va umumiyliklar tahlil qilindi;
- 4) Tahlil va sintez metodi – mavjud ma'lumotlar tahlil qilinib, ilmiy xulosalar berildi.

Natijalar va muhokamalar. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati ko'lam oxirgi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bunga ushbu sohaning asosiy huquqiy asoslari yaratilayotganligi har jihatdan ta'sir ko'rsatmoqda. Istiqloq yillarida yurtimizda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratildi. Bosqichma-bosqich soha rivojiga hissa qo'shish maqsadida sohaning huquqiy asoslari shakllantirila boshlandi. Hozirgi kunga kelib xalqaro axborot-huquqiy standartlar asosida yaratilgan qonun hujjatlari sohaning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingach, umuminsoniy demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatning uzviy qismi sifatida qaraladigan bo'ldi. O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar, milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish bilan chegaralanmay, balki umum e'tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashtirishga harakat qilinmoqda. Ommaviy axborot vositalari faoliyati, erkinligi kabilarni ta'minlashda dunyo miqyosida to'plangan boy tajriba O'zbekiston Respublikasi uchun ham ayni muddao bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati 1991-yildan boshlab, ommaviy axborot vositalari faoliyati erkinligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar izchil ishlab chiqila boshlandi. Jumladan, 1991-yilda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun" va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy o'ziga xos qonunchilik asoslarining yangi shakli yaratilishida muhim qadamlar bo'ldi. Ushbu me'yoriy-huquqiy qonun hujjatlari, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash, so'z erkinligini kafolatlash va jamoatchilik vakillarining axborot olish va tarqatishga bo'lgan ehtiyojlarini sezilarli yaxshilashga qaratilgan edi. Biroq, bu qonunlar boshlang'ich davrlarda ko'proq rasmiy jihatlarga ko'proq tayangan. E'tirof etish zarurki, amaliyotda ommaviy axborot vositalari erkinligini to'liq ta'minlash borasida dastlabki bosqichda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Ammo, bu kamchiliklarning aksariyati oxirgi yillarda bartaraf etildi. Ayniqsa, 2023-yil 1-may kunidan boshlab kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonlarning fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari kafolatlari ta'minlanishi yangi bosqichga ko'tarilganligini yaqqol namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining axborot erkinligi sohasidagi huquqiy tizimi faqatgina milliy ehtiyojlarga javob berishga qaratilmagan, balki xalqaro huquqiy tamoyillarni ham inobatga olgan holda shakllangan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt [11] va Ommaviy axborot vositalari deklaratsiyasi [12] kabi hujjatlar O'zbekistonning qonunchiligida aks ettirilgan tamoyillarni shakllantirishda asosiy manba bo'ldi. Bu xalqaro huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik tizimi bilan uyg'unlikni ta'minlashda, demokratik va erkin, ijtimoiy jamiyat yaratishda muhim omil bo'lgan. So'z erkinligi, axborot olish huquqi va jurnalistlarning kafolatlangan himoyasi prinsiplari shakllanib, xalqaro huquqiy standartlarga monand holda ishlab chiqildi. Biroq, boshqa jihatlarida bo'lganidek, xalqaro huquqiy tamoyillarni milliy tizimga to'liq tatbiq etishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Masalan, bu jarayon ba'zi hollarda qo'shimcha izohlar va modifikatsiyalarni talab qilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish jarayonida, ba'zan, milliy yuridik va ijtimoiy tizimning xususiyatlari hamda mavjud siyosiy muhitni inobatga olish zarurati paydo bo'lgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash bir qancha sabablarga ko'ra muhimdir. Birinchidan, axborotning erkin tarqatilishi va fuqarolarning huquqlari ta'minlanishiga uzviy bog'liq. Ikkinchidan, demokratik boshqaruvni ta'minlashda va jamoatchilik ishtiroki va nazoratini oshirishda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlar Farrell va Jeyms tomonidan ommaviy axborot vositalarining demokratik boshqaruv tizimi va jamoatchilik ishtirokini ta'minlashdagi markaziy rolini ochib berishadi. Ularning tadqiqotida davlat hokimiyatining oshkoraligi va javobgarligi kabi jihatlar namoyon bo'lishida zaruriy vosita sifatida ommaviy axborot vositalari ko'rsatilgan. Bunday yondashuv nafaqat jurnalistlarning huquqlarini himoya qilishni, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirishni ham o'z ichiga oladi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligi faqatgina axborot olish huquqini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyatini ommaga yoritish, shuningdek, turli qatlamlarning o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratishda ham muhim vosita sifatida qaraladi.

Raqamli texnologiyalar olami va internet tarmog'ining rivojlanishi, axborot makonining shiddat bilan o'zgarishi, yangidan yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Onlayn tarzda axborot tarqatuvchi vositalar hamda ko'plab ijtimoiy tarmoqlar hozirda axborot tarqatishda, ma'lumotlarni tezda ulashishda asosiy vositaga aylanmoqda. Ushbu holatning bir nechta ijobiy jihatlari borligini inkor qilmaymiz. Biroq, yolg'on va zararli axborotlarning tez tarqalishi, odamlarning bunday yolg'on va zararli axborotlardan jabrlanayotganligi muammosini nazardan chetda qoldira olmaymiz. Ma'lumot olish xavfsizligini ta'minlashda yangi yondashuv va tamoyillardan foydalanish zaruratga aylanmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar va raqamli ommaviy axborot vositalari orqali axborotning tarqalishi, shuningdek, o'zgaruvchan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga sezilarli ta'siri borligi ta'kidlangan. Shundan kelib chiqib, axborot maydonini tartibga solish, onlayn axborot vositalarini qonuniy asosda boshqarish, jamiyatni yolg'on va zararli axborotlardan himoya qilish uchun zamonaviy huquqiy mexanizmlar yaratish zarurati oshmoqda.

Jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish, ularning axborot tarqatuvchi manbalarga erkin kirish huquqini kengaytirish, shaxsiy daxlsizligini ta'minlash hamda axborot xavfsizligini kafolatlash kabi muammolar zamonaviy OAV tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi F.I.Saidovning ta'kidlashicha, "Jurnalistlar faktlarni topish va tarqatish, voqealarni tahlil qilish va baholash uchun axborot erkinligidan foydalanadilar. Bu ularga ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajarish, jamoatchilik fikrini yaratish va siyosiy jarayonlarga ta'sir qilish imkonini beradi. Biroq jurnalist erkinligi faqat axborot tarqatish huquqi bilan cheklanib qolmaydi" [13]. Dunyo davlatlari (masalan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya) tajribasi ko'rsatmoqdaki, jurnalistlarning huquqlarini himoya qilishda samarali mexanizmlar, nafaqat OAV erkinligini ta'minlash, balki ular uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratishni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, jurnalistlarning axborot olish va tarqatish erkinligi faqat normativ hujjatlar bilan cheklanib qolmasdan, ularga real xavfsiz ish sharoitlarini yaratishni talab qiladi. Xalqaro tajriba, jumladan AQSH 1966-yilda qabul qilingan "Freedom of Information Act" da ma'lumotlarga erkin kirishni ta'minlash, xavfsiz axborot makonini yaratish masalalariga to'xtalib o'tilgan [14]. Ushbu muhim hujjat O'zbekiston Respublikasida xavfsiz axborot makonini yaratish uchun muhim hujjatlardan biri bo'lishi mumkin. Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi, ammo zamonaviy texnologiyalar va axborot olamidagi o'zgarishlar yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirgan. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilish, so'z, matbuot erkinligini ta'minlashga oid dunyo tajribasidan kelib chiqib qabul qilingan qonunlarni misol keltirishimiz mumkin.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda degan xulosa qilishimizga to'la asoslar bor. Ammo, mamlakatda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga to'liq moslash, jurnalistlarning haq-huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ma'lumotlar olishda ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish dolzarb vazifa sanaladi. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, yuqoridagi vazifalarni hal qilish davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada jadallashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va inson huquqlarini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari istiqbol yillaridan boshlab davlatning siyosiy va huquqiy rivojlanish jarayonlari, shuningdek, erkin demokratik qadriyatlarining bosqichma-bosqich shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Dastlabki bosqichlarda asos solingan normativ-huquqiy hujjatlarda, jumladan, Konstitutsiya va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun kabilarda axborot erkinligi, so'z va matbuot erkinligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar belgilab berildi. Keyingi bosqichlarda esa "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi va ularning zamon talablari asosida yangilanib borilayotganligini misol tariqasida keltirsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida axborot siyosati oxirgi yillarda demokratik tamoyillarga moslashib bormoqda. Axborot makonini demokratik tamoyillar asosida tartibga solish yo'lidagi izchil harakatlar faol tarzda amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Yangi

O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) doirasida ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlash, jurnalistlarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatini himoya qilish, axborot olish ochiqqligini kuchaytirish va xalqaro axborot standartlariga mos qonunchilik tizimini shakllantirish borasidagi islohotlar faol demokratik taraqqiyot jarayonida muhim bosqich bo‘ldi. Kelajakda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish va boyitib borish bo‘yicha bir nechta muhim vazifalar bor.

Masalan:

- jurnalistlarning kasbiy faoliyati uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, ularning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik va xavfsizligini ta’minlashga doir huquqiy mexanizmlarni davr talablariga moslashtirish;
- globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan davrga monand internet va raqamli axborot olamida axborot olish erkinligini kafolatlash bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir normalarni ishlab chiqish va yanada takomillashtirish;
- davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida axborot almashinuvi, ochiqlik siyosati va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada samarali ishlashini ta’minlaydigan tizim yaratish;
- xalqaro axborot standartlari va ilg‘or xorijiy tajribani izchil o‘rganib, milliy qonunchilikni jahon standartlariga moslashtirib borish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari xalqaro huquqiy mezonlar va zamonaviy erkin demokratik talablarga mos tarzda takomillashib borayotgani mamlakatimizda ochiq, shaffof va keng jamoatchilik nazorati mavjud bo‘lgan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – 23-bet.
2. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.06.1991 yildagi 283-XII-son. URL: <https://lex.uz/docs/-139006>
3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son. URL: <https://lex.uz/docs/-52268>
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son. URL: <https://lex.uz/docs/-83472>
5. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son. 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son. URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>
6. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni*, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
8. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar. URL: <https://www.un.org/en/global-issues/human-rights>
9. Ferrell, D. M. (2024). “We are one, but we are many”: Conceptions of Australia’s sovereign people and the proposed voice to parliament. *The Sydney Law Review*, 46(4), 423–454 <https://search.informit.org/doi/10.3316/informit.T2025042500000292012627798>

10. Soken-Huberty, E. (2021). Why is freedom of the press important in a democracy? Human Rights Careers. <https://www.humanrightscareers.com/issues/why-is-freedom-of-the-press-important-in-a-democracy/>
11. Sultanovna, K. M. (2025). SO 'Z ERKINLIGI VA UNING HUQUQIY CHEGARALARI: KONSTITUTSIYAVIY HIMOYA VA REAL HAYOTDAGI TAHDIDLAR. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(8), 259-263.
12. Cramer*, B. W. (2009). The human right to information, the environment and information about the environment: from the universal declaration to the Aarhus convention. *Communication Law and Policy*, 14(1), 73-103.
13. Ibragimovich, S. F. (2025). AXBOROT ERKINLIGI JURNALIST KASBIY FAOLIYATINING HUQUQIY KAFOLATI SIFATIDA. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(1), 103-112.
14. Keen, M. F. (1992). The Freedom of Information Act and sociological research. *The American Sociologist*, 23(2), 43-51.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).